



DAVLAT XIZMATI BILAN BOG‘LIQ NIZOLARNING KELIB CHIQISH ASOSLARI

Begimbetova Akmaral Yerjanbekovna

Toshkent davlat transport universiteti

Xalqaro transport huquqi yo‘nalishi 2-bosqi talabasi

Inagamova Mafura Muxtorxanovna

Ilmiy rahbar: Yuridik fanlar nomzodi, dotsent

Annotatsiya: Davlat xizmati, davlat xizmatchilari, ularning huquqiy maqomi va javobgarlik doirasi va ularning huquqiy jihatdan kafolotlari atroflicha muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: Davlat xizmati, davlat xizmatchilari, ma‘muriy huquqiy nizolar, ma‘muriy akt ommaviy-huquqiy munosabat.

Davlat funksiyalarini amalga oshirishda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ta‘minlanishi asosiy mezon hisoblanadi. Davlatning xalq hokimiyatchiligiga asoslanib faoliyat yuritishini baholashda, eng avvalo, har bir fuqaroning huquq va erkinliklarini himoya qilishning samarali mexanizmi yaratilganligi muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktabrdagi PF-5843-son “O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni davlat xizmatini tizimli isloh qilishda muhim ahamiyatga ega. Farmonda davlat fuqarolik xizmatini, shu jumladan nomzodlarni ochiq mustaqil tanlov orqali saralab olish jarayonini kompleks huquqiy tartibga solishni ta‘minlovchi, shuningdek davlat fuqarolik xizmatchilarining ish samaradorligi va kompetensiyasini baholovchi mezonlarni, ularning malakasini oshirishga bo‘lgan talablarni belgilovchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir kuchiga ega qonun mavjud emasligi masalasiga alohida to‘xtalib o‘tilgan.

Davlat xizmati, davlat xizmatchilari, ularning huquqiy maqomi va javobgarlik doirasi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi yagona qonun esa hali ham qabul qilinmay kelinmoqda. Bu borada A.Burxanov, J.Nematov, D.Artikov va boshqa huquqshunos olimlarning davlat xizmati nima, kimlar davlat xizmatchisi hisoblanadi, davlat xizmatchilariga qanday talablar qo‘yiladi, davlat xizmatini o‘tash shartlari, davlat xizmatchilarining huquqlari va majburiyatlari, shu jumladan ularning davlat xizmati faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan taqiqlar, ularning davriy



rotatsiyadan, attestatsiyadan o'tkazishga doir yagona talablar mavjud emasligi, davlat xizmatchilarining toifalari, martaba va unvon darajalariga oid unifikatsiyalashgan qoidalarga real ehtiyoj mavjudligi borasidagi fikrlari dolzarbligicha qolmoqda.

Ayni paytgacha "Davlat xizmati to'g'risida"gi, "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonun loyihalari ishlab chiqildi, keng va atroflicha muhokama qilindi. Davlat xizmatidagi mansabdor shaxslar, xizmatchilar, xodimlarning vazifa va vakolatlari chegarasi aniq belgilanmas ekan, davlat xizmati bilan bog'liq nizolarda davlat xizmatchilarining mas'uliyati, javobgarligi, xizmat vazifalarini noqonuniy harakatlari yoki harakatsizligi natijasida suiiste'mol qilishi, qabul qilingan ma'muriy hujjat bo'yicha kelib chiqadigan huquqiy oqibatlarga tegishli choralarni qo'llashda muammolar yuzaga kelib, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlarini ishonchli himoyasini ta'minlash murakkablashadi. Mazkur jarayon davlat xizmati bilan bog'liq nizolarga ham bevosita o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Nizoli huquqiy munosabatlarda huquqiy nizoning predmetini aniqlash hamda tushunchasini sharhlash orqali uning kelib chiqish asoslarini anglab yetishimiz mumkin bo'ladi. Davlat xizmati bilan bog'liq nizolarni ommaviy-huquqiy munosabatlarning bir turi sifatida baholar ekanmiz, ushbu nizolarni tushunishda dastlab ma'muriy nizolarni tahlil qilishimiz lozim. Adabiyotlarda ma'muriy nizolar ikki turga bo'lingan:

- 1) Obyektiv ma'muriy huquqiy nizolar;
- 2) Subyektiv ma'muriy huquqiy nizolar.

Obyektiv ma'muriy huquqiy nizoning predmeti – davlat boshqaruviga oid huquqiy aktlarning qonuniyligi hisoblanadi;

Subyektiv ma'muriy huquqiy nizoning predmeti esa ommaviy huquqiy munosabat ishtirokchilarining subyektiv huquq va majburiyatlaridir.

Ma'muriy nizolarning o'ziga xos xususiyati shundaki, bunday nizolar o'z subyektiv tarkibiga ega bo'ladi, shuningdek shikoyatda talab qilinayotgan vajlar ham boshqa nizolardan ajralib turadi. Shuning uchun ham ma'muriy nizolarning asoslanishi hamda predmeti boshqa nizolardan tubdan farq qiladi.

Subyektiv ma'muriy nizolarning bir turi sifatida davlat xizmati bilan bog'liq nizolarni ham tushunish mumkin. Chunki subyektiv ma'muriy nizolarda nafaqat ma'muriy aktning qonuniyligiga baho beriladi, shuningdek manfaatdor shaxslarning buzilgan huquq va majburiyatlari, qonuniy manfaatlari ham subyektiv ma'muriy nizoning predmeti hisoblanadi.



Davlat xizmati bilan bog‘liq nizo predmetini tahlil qilishda, avvalo, xizmat nizosining predmeti hisoblangan nizolashayotgan subyektlarning qonun bilan qo‘riqlanadigan huquq va qonuniy manfaatlarini ta‘minlashga asosiy e‘tiborni qaratish lozim.

Fikrimizcha, xizmat nizolarining predmetini tushunishda davlat xizmatchilarining huquq va majburiyatlariga oid, ularning xizmat faoliyatiga taalluqli bo‘lgan hamda huquqlarining buzilishiga sabab bo‘luvchi masalalarni keltirib chiqaruvchi davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan qabul qilingan ma‘muriy-huquqiy aktlarni, normativ huquqiy aktlarni tahlil qilish lozim bo‘ladi.

Bunda ma‘muriy organning davlat xizmati vazifalarini bajarishi yuzasidan qabul qilgan ommaviy huquqiy munosabatdagi ma‘muriy hujjatining (ma‘muriy akt) barchasi ham davlat xizmati bilan bog‘liq nizolarning predmeti hisoblanmaydi. Chunki ommaviy huquqiy munosabat doirasida qabul qilingan ma‘muriy hujjat davlat xizmatchisining huquq, majburiyatlari yoki qonuniy manfaatlariga daxl qilmasligi mumkin. Nizoning predmeti bo‘lishi uchun ma‘muriy hujjatni qabul qilish natijasida davlat xizmatchisining huquq va majburiyatlari, qonuniy manfaatlariga ta‘sir qiluvchi huquqiy oqibat kelib chiqishi zarur.

Bu borada J.N.Nematovning ma‘muriy aktni tavsiflashda uning ommaviy-huquqiy munosabat yoki ma‘muriy-huquqiy munosabat doirasida amalga oshirilishini ham keltirib o‘tish o‘rinli bo‘ladi. Ma‘muriy akt ommaviy-huquqiy munosabat yoki ma‘muriy-huquqiy munosabat doirasida ma‘muriy organ tomonidan qabul qilinadi. Ma‘muriy akt huquqiy oqibat yuzaga keltirishi bilan ham ajralib turadi, degan fikrlari ham asosli.

Ommaviy huquqiy munosabatlarda ma‘muriy organlar tomonidan qabul qilinuvchi qaror tushunchasiga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2019-yil 24-dekabrda 24-son “Ma‘muriy organlar va ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi Qarorida quyidagicha ta‘rif berilgan:

Qaror deganda, ma‘muriy organ yoki uning mansabdor shaxsi tomonidan yakka yoki kollegial tarzda qabul qilingan va muayyan huquqiy oqibat tug‘diruvchi hujjat tushuniladi¹.



Oliy Sudi Plenumining mazkur qarorida ta'kidlanganidek, ma'muriy organ tomonidan qabul qilingan hujjat muayyan huquqiy oqibat tug'dirishi zaruriy belgi hisoblanadi.

Davlat xizmati bilan bog'liq nizolarning predmetiga oid tahlillar natijasida ushbu toifadagi nizo predmeti tushunchasiga quyidagicha ta'rif berildi:

Xizmat nizosining predmeti – davlat xizmatchisining faoliyati davomida davlat xizmati bilan bog'liq munosabatlarda uning huquqlari, majburiyatlari va qonuniy manfaatlari buzilishiga sabab bo'luvchi, ularga daxl qiluvchi, ommaviy huquqiy vakolat natijasida qabul qilingan normativ tusdagi yoki huquqni qo'llash hujjati, shuningdek mansabdor shaxsning harakati (harakatsizligi) natijasida yuzaga keluvchi nizoli huquqiy munosabat hisoblanadi.

Xizmat nizolarini keltirib chiqaruvchi asoslar esa nizoga sabab bo'luvchi yuridik faktlardir. S.V.Linetskiy davlat xizmati bilan bog'liq nizolarni keltirib chiqaruvchi yuridik faktlarni ikki asosiy guruhga tasniflaydi:

- Mansabdor shaxsning harakati (harakatsizligi) yoki qarorlari natijasida davlat xizmatchisining qonun bilan kafolatlangan huquqlarining buzilishi;

- Davlat organi, uning mansabdor shaxsi tomonidan vakolat doirasidan chetga chiqqan holda noqonuniy harakat (harakatsizlik) oqibatida davlat xizmatchisining manfaatiga putur yetkazish.

Davlat xizmati bilan bog'liq nizolarni keltirib chiqaruvchi faktlarni, shuningdek quyidagicha tasniflashimiz mumkin:

Birinchidan, davlat xizmatchisi sifatida nomzod uchun huquqni vujudga keltiruvchi faktlar. Bunday faktlarga xizmatga tayinlash bo'yicha buyruq yoki xizmatga kirishda rad javobini olish misol bo'ladi.

Ikkinchidan, nizo subyektlarining bir biriga bo'ysunuv munosabatidan kelib chiqqanligini tasdiqlovchi faktlar.

Uchinchidan, bevosita nizoga olib keluvchi faktlar. Davlat xizmatchisining huquq va qonuniy manfaatlari ikkinchi tomonning (davlat organi mansabdor shaxsi) harakat yoki harakatsizligi natijasida buzilishi oqibatida kelib chiqadigan nizolarni bevosita nizoga sabab bo'luvchi omil, deb qarashimiz mumkin.

Mazkur yuridik faktlar asosida davlat xizmati bilan bog'liq nizolarning quyidagi turlarini ajratib o'tishimiz mumkin:

- Davlat xizmatiga tanlov asosida kirishda davlat xizmatiga kirish uchun nomzodning tanlov natijalaridan norozi bo'lganligi;



• Davlat xizmatchisining xizmat vazifalarini bajarishi mobaynida yuqori turuvchi mansabdor shaxs tomonidan xizmatchining vakolatiga kirmaydigan majburiyatlarni noqonuniy tarzda yuklanishi;

• Xizmat bo'yicha o'sish yoki lavozim bo'yicha tushish bilan bog'liq munosabatlar;

• Xizmat faoliyatida asossiz tarzda davriy rotatsiyaning amalga oshirilishi;

• Davlat xizmatchisining uning faoliyatini baholash natijalaridan noroziligi;

• Davlat xizmatini tugatish bilan bog'liq munosabatlarda xizmatdan noqonuniy bo'shatilganligi va boshqa davlat xizmatchilarining xizmat faoliyatidagi ma'muriy-huquqiy munosabatlar natijasida yuzaga keladigan nizolar.

Davlat xizmati bilan bog'liq nizoni tushunishda nizolashayotgan taraflar hamda subyektlarni bir biridan farqlab olishimiz lozim bo'ladi. Bunday nizolarda taraflar bir tomondan – davlat xizmati faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxs – arizachi bo'lsa, ikkinchi tomondan – ommaviy huquqiy munosabatga kirishuvchi davlat organi - javobgar hisoblanadi.

Nizolashuvchi tomon sifatida shaxsning statusi quyidagicha bo'lishi mumkin:

- davlat xizmatiga kirish uchun nomzod;
- davlat xizmatchisi;
- davlat xizmatida faoliyatini tugatgan shaxs;
- davlat xizmatiga qabul qilishda vakolatli mansabdor shaxs;
- bo'ysunuv munosabatida davlat xizmatchisidan yuqori turuvchi mansabdor shaxs;
- davlat organi rahbari.

Davlat nizo subyekti sifatida nizoga olib keluvchi huquqiy akti qabul qilgan davlat organi yoki davlat organining vakolatli mansabdor shaxsi bo'lib ishtirok etadi.

Shuningdek, davlat xizmatida davlat organining vakilini ham alohida ta'kidlab o'tishimiz kerak. Davlat organi vakilining vakolatlari aksariyat hollarda aniq belgilanmaganligi xizmat bo'yicha nizolarni keltirib chiqarishi mumkin bo'ladi. Ushbu vakil asosan mansabdor shaxs bo'lib, davlat organining tashkiliy huquqiy vazifalarini bajaradi, davlat xizmatchilarining faoliyatini davlat organiga bo'ysunuv munosabatida tashkil etadi. Ular davlat nomidan davlat xizmatiga qabul qilish va xizmatdan bo'shatish, shuningdek davlat xizmatchisining vakolatlarini amalga oshirishini boshqarib turadigan mansabdor shaxslar hisoblanadi. Davlat xizmati bilan bog'liq nizolar aynan yuqorida ta'kidlab o'tilgan subyektlar ishtirokida kelib chiqadi.



S.E.Arutyunova qonunchilikda davlat xizmatchilarining professional faoliyati, xizmatga qabul qilinish tartib taomilini, shuningdek davlat xizmatchilarining intizomiy, ma'muriy hamda jinoiy javobgarligini belgilash orqali normalardagi bo'shliqlarni bartaraf etish zarurligini ta'kidlab o'tadi.

Yuqoridagilarni tahlil qilish yakunlari bo'yicha davlat xizmatida yuzaga keladigan nizolarda quyidagi xususiyatlarni nazarda tutishimiz lozim:

- Xizmat nizolari boshqaruv va bo'ysunuv munosabati natijasida yuzaga keladi;
- Davlat xizmatchisi – davlat xizmatiga kirishga nomzod, davlat xizmatchisi yoki oldin davlat xizmatchisi bo'lgan shaxs bo'lib nizo subyekti hisoblanadi;
- Davlat esa – davlat organi yoki davlat organining mansabdor shaxsi, xususan davlat organi rahbari bo'lib nizo ishtirokchisi hisoblanadi;
- Nizo davlat xizmatiga kirish uchun nomzodlikdan to xizmatni tugatishgacha bo'lgan bosqichlarda ro'y beradi.

Hulosa qilib aytadigan bo'lsak davlat xizmatchisining huquqlari bo'yicha xizmat nizolarida nizo predmeti aynan huquq va majburiyatlarning buzilishi natijasi bo'lsa, huquqiy hujjat yoki aktning qonuniyligini tekshirish sud nazoratining predmeti hisoblanadi. Davlat xizmati bilan bog'liq nizolarda esa huquq bo'yicha nizo predmeti hamda sudning huquqni qo'llash hujjatining qonuniyligini tekshirish bo'yicha nazorat predmeti bir biriga to'g'ri keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktabrdagi PF-5843-son "O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.03.2021-y., 06/21/6184/0192-son. URL: <https://lex.uz/docs/-4549998>.
2. Burxanov A. O'zbekistonda davlat xizmatiga oid qonunchilik va uni unifikatsiyalash zarurati. O'zbekiston Respublikasida davlat xizmatini isloh etishning huquqiy asoslari: davra suhbat materiallari. Toshkent Baktria press, 2015. 43-bet.
3. Nematov J. Yaponiyada davlat xizmatining o'ziga xos xususiyatlari: qiyosiy-huquqiy tahlil. O'zbekiston Respublikasida davlat xizmatini isloh etishning huquqiy asoslari: davra suhbat materiallari. Toshkent Baktria press, 2015. 34-35-betlar.
4. Artikov D.R., The role and place of public service in Uzbekistan in the elimination of corruption. Journal of Law Research. 2020, vol. 5, issue 7, p. 8.



5. Ивлева Л.Н. Понятие и признаки административно-правового спора. Общественная безопасность в системе стратегических национальных приоритетов Российской Федерации: Сборник научных трудов XIII Всероссийской конференции «Правопорядок в России: проблемы совершенствования». – М. : Московский университет МВД России имени В.Я. Кикотя, 2019. С. 221.

6. Nematov J.N. Can a citizen's right to file a complaint to the administrative court be limited (Analysis of certain aspects of jurisdiction). Journal of Law Research. 2020, special vol., issue 4, pp. 214.